

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ISKANDAROVA NIGORA KURVANBEKOVNA**

**TOLANI TABIIY XUSUSIYATLARINI SAQLASHDA JIN ARRASINI  
PARDOZLASH TEXNOLOGIYASINING O‘ZIGA XOSLIGI**

**05.02.03 - Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Iskandarova Nigora Kurvanbekovna**

Tolani tabiiy xususiyatlarini saqlashda jin arrasini pardoqlash texnologiyasining o'ziga xosligi .....3

**Искандарова Нигора Курванбековна**

Технологические особенности отделки джинных пил с целью сохранения природных свойств волокна.....23

**Iskandarova Nigora Kurvanbekovna**

Technological features of finishing gin saws in order to preserve the natural properties of the fiber.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ISKANDAROVA NIGORA KURVANBEKOVNA**

**TOLANI TABIIY XUSUSIYATLARINI SAQLASHDA JIN ARRASINI**  
**PARDOZLASH TEXNOLOGIYASINING O‘ZIGA XOSLIGI**

**05.02.03 - Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/T2388 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-saxifasida (<https://www.ttyesi.uz>) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shin Illarion Georgiyevich**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Baxadirov Gayrat Ataxanovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Rosulov Ruzimurad Xasanovich**

texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**"Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30/12.2019.T.08.01 -raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "01" fevral soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: ([pochta@ttyesi.uz](mailto:pochta@ttyesi.uz))). Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (195-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "17" yanvar kuni tarqatildi.

(2024 yil "17" yanvar №195 raqamli reestr bayonnomasi).



**X.H.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash  
raisi, t.f.d., professor



**A.Z.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqariladigan umumiy tolaning 55-60 % ni paxta tolasi tashkil qiladi. Aholining jadal suratda oshib borishiga bog‘liq tabiiy mahsulotlarga, ayniqsa paxta tolasi to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlariga talab ham oshib boradi. Paxta tolasini ishlab chiqaruvchi mamlakatlar- Xitoy, AQSh, Hindiston, Braziliya, Turkiya, O‘zbekiston, Indoneziya va boshqa davlatlarda tola sifatiga talab oshib bormoqda, to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini raqobatbardoshligi shularga bog‘liq<sup>1</sup>. Raqobatbardoshlikni oshirish yuqori sifatli paxta tolasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. To‘qimachilik sanoatining ishonchli va sifatli mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun paxta tozalash sanoatini yangi texnika va texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon tajribasida bu yo‘nalishda paxtani qayta ishlovchi mashinalarning arrali disklariga pardozlab ishlov berishning yangi progressiv usullarini ishlab chiqish, jihozlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda arra diski tishlariga abraziv oqimli ishlov berish orqali tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlash ustvor hisoblanmoqda. Bu borada, paxta xomashyosini qayta ishlashda tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlashga imkon beradigan mashinalarning ishchi qismlari detallarini uzoq muddatga chidamli texnologiyasini ta‘minlash muhim hisoblanadi va paxta tolasi bilan tutashuvchi arra tishlari o‘tish yuzlarining qoniqarli mikroprofilini shakllantirish hisobiga tolaning ajratish sifatini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Bizning respublikamizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, paxta xomashyosini qayta ishlash rentabelligini oshirish, texnologik jihozlarni modernizatsiyalash asosida va berilgan sohada fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarda taraqqiyot Strategiyasida, shuningdek, “Milliy iqtisod barqarorligini ta‘minlashga, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushi va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 marta oshirishga yo‘naltirilgan sanoat siyosatini amalga oshirishda...” muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>2</sup>. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani dastlabki ishlov texnologiyasi va jihozlarini takomillashtirish, paxtani qayta ishlovchi mashinalarning arra disklarini zarbali o‘zaro ta‘sir jarayonida arra tishlarining o‘tish yuzalarini zarur bo‘lgan mikroprofilini shakllantiruvchi xususiyatli yuqori darajada kesish qobiliyatiga ega bo‘lgan zamonaviy abraziv materiallar bilan pardozlab ishlov berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarda taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” 2021-yil 16-noyabrdagi PF-16 son “Paxta- to‘qimachilik klasterlar faoliyatini tartibga

<sup>1</sup> International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, email: [secretariat@icac.org](mailto:secretariat@icac.org). September

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони.

solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi 397-son “Paxta to‘qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyasining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mexanik ishlov berishning progressiv usullari va rejimlari, texnologik mashinalar ishchi qismlari detallarining yuqori darajada ishga layoqatliligi, yeyilishga chidamliligi, toliqishga mustahkamligi va uzoq muddatga bardoshlilikiga erishish maqsadida ularning yuza qatlamlari sifatini ta‘minlashni asoslash bo‘yicha zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishining muhim masalalari chet el olimlari va mutaxassislari Ye.M. Trent, X. Opits, I.Dj. Armarego, Dj. Martin, G.Fuks, S.V. Serensen, A.A. Matalin, A.D. Makarov, B.A. Kravchenko, D.D. Papshev, V.K. Starkov, A.M. Sulima, I.V. Kudryavtsev, S.G. Xeyfets, V.F. Bez‘yazichniy, A.G. Suslov, Yu.G. Kabaldin, M.A. Tamarkin va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Paxtani qayta ishlovchi mashinalar ishchi organlari detallariga yakuniy ishlov berish uchun ularning mustahkamlik va ekspluatatsion xususiyatlarini ta‘minlash bo‘yicha qator texnologik jarayonlar taklif qilingan. Bu ilmiy yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha olimlar: akademik R.G. Maxkamov, I.G. Shin, M.G. Xamov, V.V. Shiryaev, A.P. Rogov, A.M. Axmedov, M.R. Muminov, Z.A. Shodmonkulov va boshqalar ushbu sohani rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar.

Ammo, paxtani qayta ishlovchi mashinalar ishchi qismlarining muhim detallari mustahkamligi va uzoq muddatga chidamliligini oshirishga erishilgan yutuqlarga qaramay hozirgi kunda arra tishlarining o‘tish yuzalari ma‘qul mikroprofilni shakllantirishga nisbatan muammoli masalalarni yechishga yetarli darajada e‘tibor berilmagan, bu esa tolani tabiiy xususiyatlarini maksimal saqlagan holda tolani ajratishni kafolatlaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining davlat ilmiy texnika loyihasi IOT-2013-5-28 “Paxtani dastlabki ishlash mashinalari muhim detallarini ularning yuza qatlamlarini drob bilan dinamik mustahkamlashdan so‘ng kvalimetriya bo‘yicha ishga layoqatliligini oshirish va uzoq muddatga chidamliligini bashoratlash” doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** paxta tolasining tabiiyligini saqlash maqsadida havobraziv muhiti orqali jin arrasi tishlariga pardoqlab ishlov berish, hamda jin arrasi tishlari o‘tish yuzalarining texnologik sifatini ta‘minlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

havo abraziv muhit oqimini boshqarib, jin arrasi tishlariga pardoqlab ishlov berishni asoslash;

yuqori kesish xususiyatiga ega abraziv zarralar (kupershlak) bilan arra diski tishlariga pardoqlab ishlov berishning nazariy asosini ishlab chiqish;

o'tish yuzalari aylana radiuslarini aniqlash va jin arrasi tishlarining mikrogeometriyasini tajribaviy tadqiq qilish;

taklif etilayotgan texnologiya bilan ishlov berilgan jin arralarining korxonaniki bilan tolani mexanik shikastlanishini qiyosiy solishtirishni tadqiq qilish;

jinlashda tolaning tabiiy xususiyatini saqlash bo'yicha texnologik tavsiyalar ishlab chiqish, havo oqimidagi yangi abraziv zarralar bilan pardozlab ishlov berishni ishlab chiqarishga tadqiq etish va iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida 7DP jin ishchi kamerasiidagi arra silindrining arrali disklari olindi.

**Tadqiqotning predmeti** jinlashda arrali disk tishlari sirtining fizik-mexanik holati va geometrik majmuasi, yo'naltirilgan siqilgan havo oqimi bilan kupershlak yangi abraziv zarralar orqali pardozlab ishlov berishni shakllantirish, shuningdek, jinlashdan so'ng paxta tolasining sifat xarakteristikalarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda nazariy va amaliy mexanika, qayishqoqlik va plastiklik nazariyasi, kesish nazariyasi, termodinamika va issiqlik fizikasi asoslari, skanerlovchi elektron mikroskop va rentgen strukturali tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jin arrasi tishlariga pardozlab ishlov berish uchun yangi material-kupershlak abraziv material sifatida tavsiya etilib, qattiqligi va mustahkamligi ortishi birinchi marta aniqlangan;

zarbali o'zaro ta'sir jarayonida birlamchi erkin abraziv mikrokesishda shakllangan abraziv zarrani metall yuzasiga qiya zarbasidagi deformatsiya modeli va hosil bo'ladigan ariqchaning ko'ndalang kesim yuzasi geometriyasi, tezlik, zarracha zichligi, zarba burchagi, ishlov beriladigan materialning oquvchanlik chegarasini nazarga oluvchi ishqalanish koeffitsiyentining ifodasi aniqlangan;

arra tishlarini material bilan tutashmasida shakllangan bo'lib, buning natijasida tolalarni tirnalgan va qirqilgan ko'rinishda mexanik shikastlanishini birdan kamayishi, agar  $r < 0,1 \dots 0,15$  mm bo'lganda tolaning tabiiy xususiyatini saqlashga imkon beradi, jin arrasi tishlarining oldingi va orqa qirralari oraliq o'tish, yon tomon o'tish yuzasining radiusini qiymati  $r = 0,116$  mm ariqchaning kengligini yarmi sifatida iz olish usulida aniqlangan;

zarba kuchini (kesish kuchini) gorizontal tashkil etuvchisi, abraziv zarracha o'lchami qayta ishlanadigan materialning oquvchanlik chegarasi, zarba burchagini hisobga olib, arrali disk tishlariga kupershlak zarrachalari bilan abraziv oqimli ishlov berishda  $h_n$  puxtalash chuqurligini (deformatsiyali mustahkamlash) hisoblash ifodasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kompleks nazariy-tajribaviy tadqiqotlar asosida jin arrasi tishlariga misni ishlab chiqarishda qoldiq mahsulot hisoblangan yangi abraziv material – kupershlak zarrachani havo-abraziv oqimida qayta ishlash samaradorligi isbotlandi;

abraziv oqimli ishlov berishning tavsiya etilgan rejimlari va shartlarini asoslash va bajarish: siqilgan havo bosimi  $p = 0,4$  MPa, kupershlak abraziv zarrachalar o'lchami  $D = 0,6 \dots 0,8$  mm (asosiy fraksiya 80% gacha), zarba burchagi  $\alpha = 45 \dots 60^\circ$ , abraziv oqimli pistolet soplosidan ishlov beriladigan metall yuzagacha oraliq

120 mm. Ishlov berish seriyali chiqarilgan sanoatning qum oqimli apparatida, shuningdek, korxonada tayyorlangan jihozda amalga oshirilgan;

arra tishlarining qirralarini silliqlash jarayonidan so'ng hosil bo'lgan qilovlar kupershlak zarrachali abraziv oqimli ishlov berishda samarali olib tashlandi. Bunda tishlarning o'tish yuzalaridagi silliqlashni samarali radiusi  $r=0,116$  mm paxta tolasining tabiiy xususiyatini maksimal saqlashni ta'minlangan;

paxta tolasining qiyosiy ishlab chiqarish sinovlari va laboratoriya tadqiqotlari asosida bir qator standart ko'rsatkichlari bo'yicha tavsiya etilayotgan jin arralarini tayyorlash texnologiyasining sezilarli ustunligiga erishilgan hamda tolaning yuqori o'rtacha uzunligi 1,1 mm ga; solishtirma uzilish kuchi 1,55 sN/teks ga ortishi; uzilishdagi uzayish – 5,3% ga o'zgarishi bo'yicha jin arralarining taklif qilingan tayyorlash texnologiyasini yetarlicha afzalligi olingan, shuningdek, boshqa sifat ko'rsatkichlar bo'yicha – kalta tolalar indeksi, o'rtacha uzunlik bo'yicha afzalligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** uriluvchi abraziv zarrachaning metall yuzasi bilan o'zaro ta'sirida abraziv oqimli ishlov berishni tavsiflash uchun matematik va fizik modellarni asosli tanlash, nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalarining mosligi, jin arrasi tishlarining paxta tolalarini sifatli holati bo'yicha tajribada hamda sanoatda tekshirishni ijobiy natijalari va arrali disklarga havo-abraziv oqimda yangi material- kupershlakda ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqarishga tatbiq qilinganligi bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Jin arrasi tishlarining yon tomon qirralarini silliqlashdan so'ng hosil bo'lgan o'tkir qilovlarni olib tashlash va o'tish yuzalarining ratsional qiymatli radiusda silliqlash maqsadida jin arrasi tishlarini pardozlovchi – mustahkamlovchi ishlov berish uchun yo'naltirilgan siqilgan havo tarkibida yangi abraziv material – kupershlakni yuqori kesuvchanlik xususiyatini asoslash va amalga oshirish hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati paxta tolasini ust kesim, uzilish ko'rinishidagi mexanik shikastlanishini kamayishi oqibatida uning tabiiy xususiyatini maksimal saqlagan shuningdek, nuqson va iflos aralashmalarni kamaytirgan holda, tolani sifatli ajratishga imkon beradigan jin arralariga abraziv oqimli ishlov berish samaradorligini isbotlashdan iborat. Abraziv oqimli ishlov berishda hosil bo'ladigan deformatsion mustahkamlik samarasi ekspluatatsiya sharoitida arralarni uzoq muddatga chidamliligini oshiradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jinlarning arrali disklariga abraziv oqimli ishlov berish bo'yicha dissertatsiya ishini bajarishda olingan ilmiy natijalar asosida:

kupershlak zarralari bilan abraziv oqimli ishlov berilgan arra disklar Toshkent viloyatining "Real Agro Cotton" UK tizimidagi Piskent paxta tozalash korxonasida joriy etilgan. ("O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2023 yil 31 may №02/22-389 ma'lumotnomasi). Natijada tolaning yuqori o'rtacha uzunligi 1,1 mm ga, solishtirma uzilish kuchi 1,55 sN/teks ga va uzilishdagi uzayish 5,3 % ga ortishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari ma'ruza ko'rinishida bayon etilib 18 ta xalqaro va 7 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.


**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 35 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ular orasida 4 ta respublika va 7 ta xalqaro nashrlarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** dissertatsiya tuzilishi bo'yicha nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslandi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirildi, tadqiqot ob'yekti va predmeti aniqlandi, tadqiqotning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatildi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari taqdim etildi, olingan natijalarning ishonchliligi asoslandi, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati tadqiq etildi, tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va ishlab chiqarishga joriy etish to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Dissertatsiyaning **“Jin arrasi tishlarining ratsional mikrogeometriyasi - mashinalarning unumdorligini oshirish va tola sifatini saqlash zahirasi”** deb nomlangan birinchi bobida tolani ajratuvchi mashinaning arrali disklarini tayyorlash texnologiyasi va tishlarning o'tish yuzalari mikrogeometriyasi tahlili bajarildi. Jin arrasi tishlari o'tish yuzalari aylana radiuslarining paxta tolasini mexanik shikastlanishi va sifatiga muhim ta'siri ta'kidlangan. Hozirda qo'llaniladigan abraziv materiallar



**1-rasm. Siqilgan havo  $p$  bosimida  $\alpha$  zarba burchagida yo'naltirilgan erkin abrazivlar bilan metall yuzalariga ishlov berish sxemasi**

(kvarsli qum, kremniy karbidi) va odatdagi qumli vannada ishlov berish xohlagan natijani bermasligi va tolani ajratish uchun jin arrasi tishlarini texnik tayyorlash muhimligini e'tiborga olsak, pardoqlab ishlov berish uchun yangi sxema va materiallarni qidirish, asoslash va amalga oshirish zarur. Ushbu ishda arrali diskni pardoqlash-mustahkamlash orqali ishlov berishda birinchi marta yangi abraziv material – kupershlak qo'llanildi. Kupershlak mis ishlab chiqarishda qoldiq mahsulot bo'lib, yetarlicha qattqlikka ega, siqilgan havo oqimida ishlov beriladigan yuzaga yo'naltirilgan ko'p kesuvchi qirralidir.

Dissertatsiyaning **“Abraziv oqimli ishlov berishda erkin abrazivni metall yuzasi bilan dinamik tutashishini tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida siqilgan havo oqimida yo'naltiriladigan erkin abrazivni metall mahsulotlariga abraziv oqimli



ishlov berish modellashtirildi. Hamda abraziv zarrachani metallga kirishning maksimal chuqurligi dinamik tutashish jarayonida abrazivning metall to'siqqa zarbada ishqalanish koeffitsiyentini aniqlash masalalari yechildi.

Paxta tolasi va chigitning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha afzalligini oshirishning muhim rezervi yuqori kesish xususiyatli zarrachalar bilan (1-rasm) abraziv oqimli ishlov berishda qayta ishlash qiyin bo'lgan joylarini, masalan, jin arrasi disklari tishlarining botiqligi. Arralarni sifatli tayyorlash tishning o'tish yuzalari mikroprofili bilan tutashishini qulay sharoitlari tolalarni ajratishda ularning tabiiy xususiyatlarini maksimal darajada saqlash imkonini beradi.

Abraziv zarrachalarni metall yuzasiga zarbada o'zaro tutashish jarayonini (2-rasm) kuch faktorlari orqali talqin qilish kerak, ya'ni abraziv zarrachani metall yuzasi bilan o'zaro ta'sir kuchini ularning fizik-mexanik xususiyatlarini nazarga olgan holda tahlil qilish kerak. Bunda tutashishdagi o'zaro ta'sir zarba kuchini  $P$  modellashtirish jarayonida doira ko'rinishidagi abraziv zarracha markaziga qo'yamiz (2-rasm, a).

### 2-rasm. Tutashishning o'zaro ta'sir kinetikasi:

$a$  - abraziv zarrachani zarba burchagida  $\alpha$  va tezlikda  $v$  metall yuzaga zarbasi;  $b$  - to'g'ri zarba ( $\alpha=90^\circ$ )  $d$ ,  $h$  o'lchamli plastik iz ( $d$ - diametr,  $h$ - chuqurlik);  $v$  - hosil bo'lgan chuqurcha bo'yicha sirpanish va  $x$  masofaga  $P_x=P\cos\alpha$  kuchi ta'sirida siljish;  $g$ - abraziv zarrachani tutashish yuzasidan  $V'$  tezlikda uzilishi;  $d$ ) - abraziv zarrachani metall to'siqqa tutashishdan keyingi chiziq (tirnalish)



Zarba kuchining vertikal tashkil etuvchisi  $P_y = P \cdot \sin \alpha$  abraziv zarracha metall to'siqqa bosimni keltirib chiqaradi, bunda  $d$ ,  $h$  parametrli chuqurcha (teshik) hosil bo'ladi:  $d$ - diametr,  $h$ - chuqurlik (2-rasm, b). Zarba kuchining gorizontall tashkil qiluvchisi  $P_x = P \cdot \cos \alpha$  ta'sirida abraziv zarracha hosil bo'lgan teshik bo'yicha ba'zi sirpanishga ega bo'lib  $x$  o'qi yo'nalishida harakatlanadi (2-rasm, v). Abrazivda o'tkir kesuvchi qirralarning bo'lishi nisbiy harakat jarayonida kinetik energiya yetarli bo'lganda qirindi hosil qiluvchi mikrokeshish amalga oshiriladi, bunda qirindi kesuvchi qirraning oldingi yuzasidan chiqadi.

Shunday qilib, erkin abraziv bilan metall yuzalariga ishlov berishning muhim xususiyati aniqlandi. Bunda mikrokeshishda kesiladigan qatlam zarbada abrazivni materialga bosishdagi  $h$  - chuqurlik qismi bilan aniqlandi.

Zarbada abraziv zarrachaning metall yuzasi bilan tutashadigan o'zaro ta'sirini yakunlovchi bosqichda sapchish (2-rasm, g) bo'lib, u qayishqoqplastik tutashishidan chiqadi. Bunda zarracha sapchish parametrlariga: tezlik  $V'$  va burchakka  $\alpha'$  ega

bo'lad, bu parametrlar zarba parametrlaridan (tezlik  $V$  va zarba burchagi  $\alpha$ ) ancha kichikdir. Natijada, abraziv zarrachani metall yuzasi bilan tutashishidan so'ng tashqi kuchlar ta'sirida metall yuzada chiziqlar (tiralishlar) qoladi (2-rasm, d), bu esa mikrokesishning o'tgan jarayonlarini va abraziv yeyilish sharoitida plastik deformatsiyani tasdiqlaydi.

Qattiq abraziv zarrachaning deformatsiyalanuvchi yarim fazo bilan tutashish ta'sirini tenglamalar sistemasi bilan tavsiflash mumkin:

$$\begin{cases} m \frac{d^2h}{dt^2} = -P_y, \\ m \frac{d^2x}{dt^2} = -P_x, \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda  $P_y$ ,  $P_x$  - tegishli zarba kuchini  $P$  normal va tangensial tashkil qiluvchilari.

Zarba kuchini normal tashkil etuvchisi  $P_y$  to'g'ri zarbada ( $\alpha = 90^\circ$ ) kuchga  $F$  ekvivalent V. Gol'dsmitning bog'lanishiga muvofiq zarba kuchi uchun quyidagicha bo'lad:

$$F = P_y = \pi \sigma_T a^2 \cong 2\pi \sigma_T R h = -m \frac{d^2h}{dt^2}, \quad (2)$$

bu yerda  $m$  va  $R$  – tegishli sharning massasi, kg va radiusi, mm;

$h$  - zarrachaning kirish chuqurligi, mm;  $a$  – plastik iz radiusi, mm;

$\sigma_T$  - oquvchanlik chegarasi, N/mm<sup>2</sup>.

Abraziv zarrachaning  $m$  massasi  $4\pi R^3/3$  hajm va zichlik  $\rho$  orqali, materialning holatini nazarga oluvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda ifodalandi (N.M. Mixinning tadqiqotlariga ko'ra normal holatdagi material uchun koeffitsiyent  $c=1$ ,  $c=10$  deformatsiyaning mustahkamligi mavjud bo'lganda). Yakuniy shaklda differensial tenglama quyidagi shaklni oldi

$$\frac{d^2h}{dt^2} = -\frac{3}{2} \cdot \frac{c \sigma_T h}{\rho R^2} \quad (3)$$

ikkinchi tartibli chiziqli bir turdagi doimiy koeffitsiyentlar bilan bog'liq.

Xarakterli tenglama orqali tenglamaning umumiy yechimini topamiz (3)

$$h = C_1 \cos\left(\frac{1}{R} \sqrt{\frac{3}{2} \cdot \frac{c \sigma_T}{\rho}} \cdot t\right) + C_2 \sin\left(\frac{1}{R} \sqrt{\frac{3}{2} \cdot \frac{c \sigma_T}{\rho}} \cdot t\right), \quad (4)$$

bu yerda,  $C_1$  va  $C_2$  ning doimiy integratsiyasini dastlabki shartlardan topamiz:  $t=0$ ,  $h=0$ ;  $t=0$ ,  $dh/dt=V_0 \sin \alpha$

Integrallash doimiyligi  $C_1$  va  $C_2$  hisobga olgan holda yakuniy tenglamani olamiz

$$h = \frac{V_0 \sin \alpha}{\frac{1}{R} \sqrt{\frac{3}{2} \cdot \frac{c \sigma_T}{\rho}}} \cdot \sin\left(\frac{1}{R} \sqrt{\frac{3}{2} \cdot \frac{c \sigma_T}{\rho}} \cdot t\right) \quad (5)$$

U holda abraziv zarrachaning maksimal kirish chuqurligi quyidagicha aniqlanadi

$$h = V_0 \sin \alpha \cdot R \sqrt{\frac{2}{3} \cdot \frac{\rho}{c \sigma_T}} \quad (6)$$

bir vaqtning o'zida


$$\frac{1}{R} \sqrt{\frac{3}{2} \cdot \frac{c \sigma_T}{\rho}} \cdot t = \frac{\pi}{2}, \quad t = \frac{\pi}{2} R \sqrt{\frac{2}{3} \cdot \frac{\rho}{c \sigma_T}} \quad (7)$$

(7) ifoda orqali faqat faol zarba fazasida abraziv zarrachaning metall to‘siqqa tutashish davomiyligi aniqlanadi, chunki to‘g‘ri bo‘lmagan zarbada sirpanish jarayonida mikrokesish va metall yuzasidagi zarrachalar olib tashlanadi.

Metall yuzasiga (arrali disk materialiga) urilganda abraziv zarracha kirish maksimal chuqurligini  $h$  aniqlash bo‘yicha sonli tajriba quyidagi sharoitlarda o‘tkazildi: zarracha radiusi  $R=0,4...1,2$  mm; zarba tezligi  $V_0 = 20, 30, 40$  va  $50$  m/s; ishlov beriladigan materialning oquvchanlik chegarasi  $\sigma_T=500...800$  N/mm<sup>2</sup>; abrazivning (kupershlakning) zichligi  $\rho=3,86$  g/sm<sup>3</sup>, zarba burchagi  $\alpha=45^0$ ; ishlov beriladigan material holatini hisobga oluvchi koeffitsiyent  $c=4$ .


Abraziv zarracha kirish maksimal chuqurligi  $h$  ni oquvchanlik chegarasi  $\sigma_T$ , zarba tezligi  $V_0$  va zarracha radiusi  $R$  ga bog‘liqligining grafik talqini 3-5 rasmlarda keltirilgan. Kirishning maksimal chuqurligi  $h$  ni oquvchanlik chegarasiga  $\sigma_T$  bog‘liq chiziqsiz pasayuvchi bog‘lanish aniqlandi (3-rasm).  $\sigma_T$  500 dan 800 N/mm<sup>2</sup> ga oshganda, masalan,  $R=0,6$  mm va  $V_0=30$  m/s  $h$  chuqurlik 0,457 dan 0,0361 mm ga kamayadi.

(6) formuladan kelib chiqadiki, kirishning maksimal  $h$  chuqurligi  $V_0$  va  $R$  parametrlari oshganda chizikli ravishda ortadi.  $V_0$  tezlik 20 dan 50 m/s oshganda  $\sigma_T=500$  N/mm<sup>2</sup> va  $R=0,6$  mm da zarrachalarni kirish chuqurligi  $h=0,0304$  dan 0,0761 mm ga oshadi (4 rasm).



**3-rasm.  $R=0,6$  mm abraziv zarracha metall to‘siqqa urilganda maksimal kirish chuqurligining  $h$  oquvchanlik chegarasi  $\sigma_T$  ga bog‘liqligi:**

- 1-  $V_0=20$  m/s; 2-  $V_0=30$  m/s;  
3-  $V_0=40$  m/s; 4-  $V_0=50$  m/s.



**4-rasm.  $R=0,6$  mm abraziv zarrachalar metall to‘siqqa urilganda maksimal chuqurlikka kirishining  $h$  tezlikka  $V_0$  bog‘liqligi:**

- 1-  $\sigma_T=500$  N/mm<sup>2</sup>; 2-  $\sigma_T=600$  N/mm<sup>2</sup>;  
3-  $\sigma_T=700$  N/mm<sup>2</sup>; 4-  $\sigma_T=800$  N/mm<sup>2</sup>

2, v-rasmga muvofiq abraziv zarracha zarba kuchi  $P\cos\alpha$  tashkil etuvchisining o‘q bo‘ylab  $V_0\cos\alpha$  tezligida siljishiga kirish chuqurligi  $h$  ga metallni tutashish yuzasida “qayta ishlov berilgan” yuza sodir bo‘ladi. Bu jarayon sferik shakldagi qattiq zarrachaning tutashish yuzasi chegarasida mikrokesish va metallni tutashish yuzasi chegarasida plastik siqib chiqarishdan iborat. Ishqalanish kuchlarini (friksion qarshilikni) va ishqalanish koeffitsiyentini  $f$  hisobga olish issiqlik fizikasi, termodinamika, abraziv yeyilish bo‘yicha ilmiy-amaliy vazifalarni yechish maqsadida tutashishdagi o‘zaro ta’sirini sinchiklab tahlil qilish uchun zarur.

Qattiq sferik zarrachani ko‘proq yumshoq metall to‘siqda sirpanishida oquvchanlik chegarasi  $\sigma_T$  bo‘lgan plastik deformatsiyali metallni izotrop deb taxmin qilib ishqalanish koeffitsiyentini  $f_m$  mexanik tashkil qiluvchisi uchun ifoda olindi:


$$f_M = \frac{2\theta - \sin 2\theta}{2V_0 \sin \alpha \sqrt{\frac{2}{3} \cdot \frac{\rho}{c\sigma_T}}} \quad (8)$$

bu yerda  $2\theta$  – ariqchanning ko‘ndalang qirqimiga mos doiraviy sektorning markaziy burchagi, rad.


Abraziv zarrachaning metall yuzaga bosilishida ishqalanish koeffitsiyentining  $f_M$  hisoblash parametrlari quyidagi qiymatlarida:  $V_0=20\dots50$  m/s,  $\alpha=45^\circ$ ,  $2\theta=10\dots36^\circ$ ,  $\sigma_T=500\dots800$  N/mm<sup>2</sup> bajarildi.

Shunday qilib,  $V_0$  zarba tezligi 20 dan 50 m/s ga oshganda chiziqli bo‘lmagan bog‘liqlikka ko‘ra ishqalanish koeffitsienti monoton ravishda 0,72 dan 0,288 gacha  $\sigma_T=500$  N/mm<sup>2</sup> va  $2\theta=30^\circ$  da pasayadi. Berilgan qonuniyatni shunday tushuntirish mumkinki, zarrachaning zarba tezligi oshganda tutashish vaqti qisqaradi, shu sababli ishqalanish koeffitsiyenti kamayadi.

Dissertatsiyaning “Arrali disk tishlarining yuzalarini kupershlak zarrachalari bilan abraziv oqimli ishlov berishdagi holatini nazariy – tajribaviy tadqiqoti” deb nomlanuvchi uchinchi bobida



$$\gamma = -58^\circ 22'; \alpha = 15^\circ 41'$$




$$\gamma = -30^\circ 49'; \alpha = 35^\circ 40'$$

**5-rasm. Kupershlak kesish qirralarining burchaklari:**

$\gamma$ - oldingi burchak;

$\alpha$ - orqadagi burchak

ko‘p qirrali noto‘g‘ri shakldagi holatidir (5-rasm). Bunda kupershlak zarrachasi ko‘p kesuvchi qirralardan iborat bo‘lib, ular turli geometriyasi: kesish burchaklarini hosil qiluvchi oldingi  $\gamma$  va orqa  $\alpha$  burchaklardan iborat.



**6-rasm. Kupershlak abraziv zarrachasi kesuvchi qirrasining aylana radiusi  $\rho$  o‘lchami**

kupershlak abraziv zarrachani kesuvchi qirrasidagi kesish burchagi va ularning aylana radiuslari, jin arrasi tishlarining o‘tish yuzalari radiuslarini tajribada aniqlash natijalari keltirilgan; qayishqoqlik va metallarni kesish nazariyasi asosida modellashtirish va deformatsiyali mustahkamlashning chuqurligini hisoblash bajarildi. Yetkazib berilgan arrali disk materiallarining qattiqligi va ularning ishga layoqatliligi bo‘yicha ma’lumotlar taqdim qilindi, skanerli elektron mikroskop va rentgen tuzilishli tahlil usullarida arrali disk namunalarning yuza qatlamlari fazali- tuzilish holatini ularning ishga layoqatliligiga bog‘lab tadqiq qilindi.

Kupershlak abraziv zarrachasining geometrik shakli vizualizatsiyasi va tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular tekis qirrali va egri chiziqli yuzalarning birgalikdagi


Ma’lumki mikrokesish – tirnash  $a_z \geq \rho$  da  $a_z < \rho$  - abrazivni ishlov beriladigan yuzada sirpanish va plastik siqib chiqarish, bunda  $a_z$  – qirqim qalinligi (kesish chuqurligi) yoki kirish chuqurligi  $h$ , ya’ni  $a_z=h$ . Kupershlak zarrachasi kesuvchi qirralarining cho‘qqilari aylana radiuslarini  $\rho$  o‘lchash uchun kattalashtirish chegarasi x50 dan x1000 gacha bo‘lgan USB elektron mikroskopdan foydalanildi va o‘lchash natijalarini avtomatik o‘qish imkonini beradi (6-rasm).

Shunday qilib, kesuvchi qirralar cho‘qqilarining aylana radiuslari  $\rho$  va kupershlak zarrachalari kirish chuqurligini  $h$  aniqlash natijalarini taqqoslash aniq xulosa qilishga, ya’ni abraziv oqimli ishlov berish intensiv mikrokeshish va jin arrasi tishlaridagi qilovlarni olib tashlash bilan kuzatiladi.

Kupershlak zarrachasining radiusi  $R=0,4-0,6$  mm,  $\sigma_m=500$  N/mm<sup>2</sup>,  $V_0=30$  m/s, kirish chuqurligi  $h=0,030-0,046$  mm yoki  $\sim 30-46$  mkm, bunda  $h/\rho = 38/18 = 2,11$  (o‘rtacha ma’lumotlarga ko‘ra), bu esa olingan nisbat yuqori kesish xususiyatiga ega bo‘lgan kupershlak zarrachali abraziv oqimli ishlov berish samaradorligining ishonchliligini isbotlaydi.


Kupershlak abraziv zarrachalari bilan abraziv oqimli ishlov berishdan so‘ng mikroprofilni va tishlarning oldingi va orqa tomon qirralari aylana radiusini baholash uchun iz olish usuli qo‘llanildi.

Izdagi chiziqni o‘lchash turli metallarning qattiqligini Brinell usuli bo‘yicha aniqlashda qo‘llaniladigan *TIME THR-150/45 DX ROCKWELL* qattiqlikni o‘lchash uchun mo‘ljallangan uskunada o‘lchandi (7-rasm). Ushbu tadqiqotda faqat bitta o‘lchash – ariqchani kengligini  $b$  o‘lchash yetarli. Uchta chiziqni o‘lchash natijalari quyidagicha:  $b=0,272; 0,231; 0,193$ ; o‘rtacha qiymati  $b=0,232$  mm.



**7-rasm. Jin arrasi tishlarining o‘tish yuzalari qirralarini abraziv oqimli ishlov berilgandan keyin ariqcha ko‘rinishida shakllanishi**

Bunda aylana radiusi  $r = b/2 = 0,232/2 = 0,116$  mm ni tashkil qiladi. Arra tishlarining o‘tish yuzalari aylana radiusining olingan  $r = 0,116$  mm qiymati muhim ahamiyatga ega. Bu paxta tolasining tabiiy xususiyatlarini maksimal darajada saqlashni ta’minlaydigan  $r = 0,1...0,15$  mm qiymatlari diapazoni bilan bog‘liq, chunki tolani metall yuzasi bilan o‘zaro ta’siri “sof” ishqalanish zonasi bilan xarakterlanadi (akad. R.G. Maxkamovning ma’lumotlari bo‘yicha).



**8-rasm. Abraziv oqimli ishlov berish jarayonining mikrokeshish paytida deformatsiyali mustahkamlash chuqurligini aniqlash sxemasi**

Abraziv oqimli ishlov berish jarayonida mikrokeshish vaqtida deformatsion mustahkamlash yoki puxtalash chuqurligini  $h_n$  aniqlash uchun shartli yuklanish sxemasi ishlab chiqildi (8-rasm),  $\sigma_r = \sigma_i = \sigma_T$  bu shartga muvofiq teng kuchlanishlarning aylanasi ko‘rsatilgan, bu yerda  $\sigma_r$  va  $\sigma_T$  - tegishlicha radial va oquvchanlikdagi kuchlanishlar.

Puxtalash chuqurligini aniqlash uchun bog‘lanish olindi

$$h_n = \frac{C_1 P \cos^2 \frac{\omega}{2}}{\pi R \sigma_T}, \text{ mm} \quad (9)$$


bu yerda  $C_1$  – formuladan aniqlanadigan qo‘shimcha koeffitsiyent

$$C_1 = \frac{4}{2(\pi + \beta_1) - \sin 2\alpha + \sin 2(\alpha + \beta_1)},$$

$\beta_1$  - nisbiy siljish burchagi, rad.

Kupershlak zarrachalari bilan abraziv oqimli ishlov berishda detallar yuzalarining puxtalash chuqurligini  $h_n$  hisoblash algoritmi ishlab chiqildi. U quyidagi bosqichlardan iborat: 1) ariqchanning  $A_2$  ko'ndalang qirgimi yuzasini aniqlash; 2) soddalashtirilgan tenglamada kesish kuchini hisoblash; 3) gorizontalar komponent (kesish kuchi) va hujum burchagi  $\alpha$  orqali zarba kuchini aniqlash; 4) qo'shimcha  $C$  koeffitsiyentni hisoblash; 5) puxtalash chuqurligini  $h_n$  aniqlash.

Sonli tajribali shartlariga mos bo'lgan puxtalash chuqurligi  $h_n$  (ishlov beriladigan material U8G po'lat,  $\sigma_s = 1150 \text{ N/mm}^2$ , qattiqlik HRA 67-70, oquvchanlik



**9-rasm. U8G po'latdan tayyorlangan arrali disk tishlarini kupershlak abraziv zarrachalari bilan abraziv oqimli ishlov berishda puxtalash chuqurligini  $h_n$  bog'lanishlari:**

1- $R=0,2$  mm; 2-  $R=0,4$  mm

chegarasi  $\sigma_T = 563 \text{ N/mm}^2$ , zarba burchagi  $\alpha=30^0, 45^0$  va  $60^0$ ,  $C_1$  ni hisoblashda  $\beta_1=13$ , bu esa  $6...20^0$  diapazonining o'rtacha qiymatiga to'g'ri keladi) abraziv zarracha radiusi  $R$  va zarba burchagi  $\alpha$  da  $h_n=0,0148...0,2676$  mm (9-rasm).

$R=0,4$  mm (kupershlak o'lchami  $D=0,6...0,8$  mm asosiy fraksiyani 80%) va zarba burchagi  $\alpha=45^0$  puxtalash chuqurligi  $h_n=0,1102$  mm. Puxtalash chuqurligining "qiyshiq qirqim" usulida jin arralari fragmenti maxsus majmualarida  $h_n=0,123$  ni tashkil qiladi (nisbiy farq 11,6%), puxtalash darajasi  $15,2...22,6\%$ . Deformatsion mustahkamlashning bunday ko'rsatkichlari

arrali disklarni uzoq muddatga chidamliligi va unumdorligini oshishiga yordam beradi.

Mashina detallarining yuza qatlamining dastlabki holatdagi fizik-mexanik parametri orasida muhim faktor hisoblangan ishga layoqatlilik – yeyilishga chidamlilik qattiqlik hisoblanadi.

Taqqoslash tahlili uchun turli korxonalaridan olingan jin arrasi disklarining mikrotuzilishi va qattiqligini (mikroqattiqligini) tajribada aniqlash uchun maxsus metalografik shlif (10-rasm) arralarning to'rtta



**10-rasm. Qattiqlik va mikrotuzilishni tadqiq qilish uchun arra diski namunalarini metallografik mikroschlifi**

namunalari tayyorlandi:

$N_1$ -nazoratdagi arra;  $N_2$ - OOO "Akbar sentral azia"; 3- OOO "Qidong";  $N_4$ - OOO "Cotton ginning".

Namuna materiallari 65G po'latning kimyoviy tarkibiga mos keladi.


Vickers bo'yicha qattiqlikning o'rtacha qiymati  $HV_{0,5}$ , Rokvell bo'yicha HRC 8 ta o'lchashda topildi. Tajriba natijalari qattiqlikning o'rtacha qiymati Vickers va Rokvell bo'yicha sinaladigan namunalar uchun  $HV_{0,5} 329...476$ , HRC  $32,2...46,2$

ko'rsatdi. Tajribalardan aniqlandiki, qattqlik nisbatan katta bo'lgan arrali disklar (№1 namuna)  $HV_{0,5}$  427,6 va HRC42,2, kichik qattqlikda ( $HV_{0,5}$  329 va HRC32,2) jinda doimiy ravishda to'liga ishlov berilishi sharoitida tishlarning yuqori qismidagi yeyilish sababli ish unumdorligi pasaydi. Demak, konstruksion materiallarni yeyilishga chidamliligiga qo'shimcha faktorlar, xususan, arrali disklarning mikrotuzilishiga ta'sir qilishi mumkin.

Arrali disk materialini termik ishlov berishdan so'ng (dastlabki holatda) fazali - tuzilishli holatini aniqlash uchun va uni ekspluatatsiya sharoitlarida (jinlashda) arrani chidamliligi bilan bog'liqligini aniqlash uchun difraksiyali va mikroskopik usullardan foydalanib tadqiqotlar o'tkazildi. Difraksiyali usul rentgen tuzilishli tahlil uskunasi – umumiy belgilangan difraktometr DRON-3 da misli monoxromatizatsiyalangan rentgenli nurlanishdan foydalanib amalga oshirildi. Fazali tajribaning tahlili maxsus berilganlar baza PDF-2 yordamida bajarildi. Arrali disk namunalari yuzalarining chegaraviy zonasini mikrotuzilishi va elementi tarkibini tadqiqoti energodispersli spektrometr INCAEnergy 350 li skanerlovchi (rastrli) elektron mikroskop VegaILMU dan foydalanib o'tkazildi. Arrali disklarning yuza qatlamini fazali - tuzilishli holati mikroqattqlikni (qattqlikni) aniqlashda foydalanildi.

Sirtidagi oksidlarning eng ko'p miqdori nisbatan qattiq (HRC 42,2) birinchi namuna yuzasida (11-rasm) yig'ilgan bo'lib, kichik qattqlikdagi HRC 32,2 to'rtinchi namuna kabi eng past chidamlilikni ko'rsatdi.

Bu namunada qo'rg'oshin oksidi va sof qo'rg'oshin borligi aniqlandi, ehtimol ular termik ishlovdan so'ng qolgan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, uglerodli po'latlarni eritilgan qo'rg'oshinda qizdirish vaqti, pechlarda qizdirish vaqtiga nisbatan 3-4 marta kam.




**11-rasm. DRON-3 difraktometrda olingan arrali disk namunalari yuzasidagi oksidli parametrlarning elektrogrammalari**


Uchinchi namuna yuzasidagi oksidli parda qalinligi birinchi namunaga nisbatan uch marta kam (tegishlicha 10,5 va 31,4 mkm) va arrali disk chidamliligi eng katta bo'lib chiqdi. Shuning uchun, past mexanik xususiyatli (qattqlik, mustahkamlik) oksid pardani va uning yig'ilishi mahsulotni yeyilishiga chidamliligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Arrali disklarning yon yuzalari qatlamlari mikrostrukturasi (12-rasm) 65G po'latni mustahkamlovchi termik ishlov berishdan so'ng hosil bo'lgan yuza qatlami tuzilishini tashkil qiluvchilar morfologiyasi, uzuluksizligi va yirikligi jihatidan sezilarli farq qiladi.

12-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi va to‘rtinchi namunalarda submikroskopik yoriqlar va mikrobo‘shliq ko‘rinishidagi nuqsonlar aniqlandi. Mikrotuzilishning yaxlitligini nisbatan yirik nosozliklari (to‘rtinchi namuna) ekspluatatsiya yuklanishida kuchlar ta‘sirida lokal buzilishlar boshlanishini qo‘zg‘atadi, chunki ular kuchlanish konsentratori vazifasini bajaradi.



**12-rasm. INCAEnergy 350 energiya dispersiya spektrometri bilan VegaILMU skanerlash elektron mikroskopida olingan arrali diski namunalarning yuza qatlamining mikro tuzilishi**



**13-rasm. №1...№4 namunalarga to‘g‘ri keluvchi arrali disk yuza qatlamining fazali tarkibining difraktogrammasi**

Arrali disk namunalarning rentgen tuzilishli tahlili (13-rasm) shuni ko‘rsatdiki, maksimal ishga layoqatliligini ko‘rsatgan uchinchi namunaning pastgi spektri soni va stexometriyasi (difraktsiya burchagi diapazoni 10 dan 42<sup>o</sup> gacha va 50 dan 63<sup>o</sup> gacha) bo‘yicha to‘rtinchi namunaning spektriga yaqin.

To‘rtinchi namunaning yuqori spektri difraktsiyani kichik burchaklari sohasida qo‘shimcha chiziqlar bilan xarakterlanadi, ulardan, odatda oksidlar, temir va marganes karbidlari hosil bo‘ladi.

